

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



«KELISHILGAN»
San'atsnuriy fakulteti
S.Azimov

25.02.2023 y.



«KELISHILGAN»
O'quv ishlari bo'yicha
prorektor R.G. Jumayev

25.02.2023 y.

5151700 – Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish
ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari uchun ixtisoslik fanlaridan
Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon
DASTURI

3.00. Umumkasbiy fanlar:

2.05. Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish asoslari.

2.06. Ssenariynavislik va madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish mahorati.

Buxoro – 2023 yil

ANNOTATSIYA

5151700 – Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha fan dasturi talablariga mos mavzularga berilgan savollarga egallagan bilim va ko'nikmalariga tayanib javob berishlari ko'zda tutilgan.

Bitiruvchi talabalar dasturda ko'rsatilgan mavzular yuzasidan tuzilgan savol (test)larga javob berishlari talab qilinadi.


Bitiruvchilar "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish asoslari" hamda "Ssenariynavislik va madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish mahorati" fanlari bo'yicha quyidagi tartibda imtihon topshiradi:

1. Madaniyat va san'at muassasalarini bugungi kundagi boshqaruv uslubi;
2. Davlat tomonidan soha rivoji uchun qabul qilingan qonunosti hujjatlari mazmun mohiyati;
3. Bo'lg'usi rahbarning jamoani boshqarish, ichki va tashqi nizolarga bo'lgan amaliy choralari;
4. Madaniyat va san'at sohasining xorijiy modellari
5. Yosh avlodni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda madaniyat muassasalarining o'rni;
6. Inssenirovka tushunchasi;
7. Inssenirovka ustida ishlash, namoyish etiladigan asarni qog'ozdan sahnagacha bo'lgan bosqichlarining mazmun mohiyati;
8. Madaniy tadbirlar, sahna ko'rinishlarini namoyish etishda Stanislavskiy maktabining ahamiyati;
9. Etyudlar ustida ishlash;
10. Asarning kompozitsion tuzulishi to'g'risida tushuncha.

51517000 – Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish ta'lim yo'nalishi barcha bitiruvchilari belgilangan dasturni o'z bilim va ko'nikmalariga tayanib beriladigan savol (test)larga javob berishlari shart.


Bitiruvchi-talabalar savollarning mohiyatini aniq tushunib, har bir savolga mustaqil javob berishi, madaniyat va san'at muassasasi xodimining kasbiy talablari to'liq o'rgangan holda, bugungi kun madaniyat va san'at sohasi xodimi oldida turgan vazifalar haqida aniq javob berishi lozim.

Tuzuvchi:



Sh.K.O'rinov, Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası o'qituvchisi

Taqrizchi:



T.I.Rajabov, BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası dotsenti, (PhD)

Imtihon dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.
2023 yil «31» . 01 . dagi 8 - sonli bayonnoma.

KIRISH

51517000 – Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta'limning o'quv reja va fan dasturi asosida amalga oshiriladi. Fan dasturlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan shaxsga «bakalavr» malaka(daraja)si hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi. Bakalavr yakuniy davlat attestatsiyasi doirasida o'quv rejadagi "Ixtisoslik fanlari" fanlaridan amaliy imtihon topshirishi nazarda tutilgan.

I. O'quv fanning dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish asoslari" fani – talabalarga O'zbekistonda madaniyat va san'atga e'tibor, madaniyat va san'at sohasi boshqaruviga oid nazariy, amaliy asoslar, xorijiy modellar, ilmiy-tarixiy tajribalar, madaniyat va san'at sohasida boshqaruv usullari va qarorlari, tizimdagi samaradorlik, transformatsion jarayonlar, zamon talablari, jahon standartlariga javob beradigan boshqaruv tizimining mohiyati va vazifalari haqida ma'lumotlarni mukammal egallashlari, o'z bilimlarini oshirishlariga ko'maklashadi.

O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasi faoliyatini tashkil qilish va boshqarishning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratilgan. Mavjud madaniyat markazlari, teatrlar, muzeylar, madaniyat va istirohat bog'lari, madaniyat saroylari, havaskorlik va badiiy jamoalari, konsert tashkilotlar, yuzlab kutubxona-axborot muassasalarni boshqarish, bozor iqtisodiyoti sharoitida, bugungi talablar darajasida faoliyat yuritishi uchun mustahkam moddiy-texnika bazasi yaratilgani haqida tushunchalar beradi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish asoslari" fanining maqsadi, talabaga madaniyat va san'at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish haqida tasavvur va bilim berish, sohaning xorijiy va milliy, ilmiy va tarixiy asoslarini yetkazishdan iborat.

Fanning vazifasi – madaniyat va san'at sohasining amaliy, nazariy, ilmiy, xorijiy asoslari va uning kasb sifatida shakllanish jarayonlarini o'rganish, madaniyat va san'at sohasidagi faoliyatning huquqiy asoslarini, madaniyat va san'at sohasi xodimining maqomi va kasbiy fazilatlarini, madaniyat va san'at sohasi obyektlarida ish yuritishni o'rgatish va istiqbolini belgilash fanning asosiy vazifalaridandir.

"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish asoslari" fanini o'rganish jarayonida bakalavr quyidagilarni bajara olishi lozim:

- Madaniyat va san'at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish tushunchasini egallashi;
- boshqaruvning nazariy asoslari, tarixi va uning kasb sifatid ashakllanishi;
- Madaniyat va san'at sohasi boshqaruvining tashkiliy-huquqiy asoslari;
- Madaniyat va san'at sohasida rahbarlik, yetakehlik, menejer, rasmiy va norsamiy liderlarning faoliyati;
- Madaniyat va san'at tizimida tashkilotchilik mahoratini egallash;
- Nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik;
- O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan sohaga oid davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik faoliyati *haqida tasavvurga ega bo'lishi*;
- Madaniyat va san'at sohasi rahbar xodimi tashkilotchiligi, fidoyi va ishbilarmonlik fazilatlarini;
- O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan teatrlar faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
- Zamonaviy madaniyat va istirohat bog'lari faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
- O'zbekiston muzeylari va ko'rgazmazallari faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
- madaniyat va san'at saroylarining hamkorlik masalalari ;
- konsert tashkilotlari va badiiy jamoalari faoliyatini boshqarish;
- havaskorlik ijodiy jamoalari va to'garaklari faoliyatni tashkil etish va boshqarish;
- nodavlat va jamoat tashkilotlari faoliyati va ijodiy jamoalarini boshqarish *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

- madaniyat va san'at sohasida innovatsion texnologiya bilan ishlash;
 - teatrlar faoliyati borasida yangiliklardan xabardor bo'lish;
 - madaniyat va istirohat bog'lari faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
 - muzeylar va ko'rgazma zallari faoliyatini tashkillashtirish va boshqarish;
 - madaniyat va san'at saroylari faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
 - konsert tashkilotlari va badiiy jamoalari faoliyatiga doir tashkiliy masalalar ;
 - havaskorlik ijodiy jamoalari va to'garaklari faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
 - nodavlat va jamoat tashkilotlari faoliyati va ijodiy jamoalarini faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
 - axborot-resurs markazlari, kutubxonalar faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish.
- madaniyat va san'at sohasi muassasalarining tarbiyaviy funksiyalarini uyg'unlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

III. "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish asoslari" fani bo'yicha o'tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi amaliy ijrosini BAHOLASH MEZONI

"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish asoslari" fanidan bakalavriat yo'nalishlariga yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi amaliy ijro usulda o'tkaziladi. "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish asoslari" fanidan 4 ta savolning har biridan olishi mumkin bo'lgan maksimal ball 25 ga teng bo'lib, jami 100 ball to'plash mumkin.

T.r.	Umumiy ball	Baho	Bakalavr talabasining bilim darajasi
1	21,5-25	A'lo (86-100)	Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qilsa, ijodiy fikr yuritib, mustaqil mushohada qila olsa, olgan bilimni amalda qo'llay olish imkoniyatiga ega bo'lsa, fanning mohiyatini tushunib berilgan savollarga to'liq jabov bera olsa, hamda fan bo'yicha tasavvurga ega bo'lsa "A'lo" baho qo'yiladi.
2	18 -21	Yaxshi (71-85)	Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qilsa, ijodiy fikr yuritib, mustaqil mushohada qila olsa, olgan bilimni amalda qo'llay olish imkoniyatiga yetarli darajada bo'lmasa hamda fan bo'yicha to'liq tasavvurga ega bo'lmasa "Yaxshi" baho qo'yiladi.
3	14-17,5	Qoniqarli (55-70)	Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qilsa, ijodiy fikr yurita olmasa, mustaqil mushohada qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa, olgan bilimni amalda qo'llay olish imkoniyatiga yetarli darajada bo'lmasa hamda fan bo'yicha to'liq tasavvurga ega bo'lmasa "Qoniqarli" baho qo'yiladi.

4	0-13,5 gacha	Qoniqarsiz (0-54)	Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qila olmasa, ijodiy fikr yurita olmasa, mustaqil mushohada qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa, olgan bilimni amalda qo'llay olish imkoniyati ega bo'lmasa hamda fan bo'yicha to'liq tasavvurga ega bo'lmasa " Qoniqarsiz " baho qo'yiladi.
---	--------------	-------------------	---

IV. Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish asoslari

1-modul. Madaniyat va san'at sohasi faoliyati boshqaruvi va zamonaviy konsepsiyalari

1-mavzu. O'zbekistonda madaniyat va san'at boshqaruvining rivojlanishi

O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi" va "Madaniyat va san'at" terminlarining mohiyati. "Obod mahalla" va "Obod qishloq" dasturlarini amalga oshirishda madaniyat va san'at sohasi xodimlarining roli. Boshqaruv haqida umumiy tushuncha. Harakatlar strategiyasining 4-yo'nalishi.

2-mavzu. O'zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish Konsepsiyasi

Konsepsiyaning shakllanish evolyusiyasi. Konsepsiyaning mazmun-mohiyati va tarkibiy qismlari. Madaniyat sohasini rivojlantirish konsepsiyasining yo'l xaritasi. Madaniyat sohasini rivojlantirish bo'yicha xududiy dasturlari. Madaniyat markazlari funksiyalari va vazifalari.

3-mavzu. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbusni targ'ib etish metodlari

Birinchi tashabbus - yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarish;

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sohasida qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish;

Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil qilish;

To'rtinchi tashabbus – yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish.

4-mavzu. Madaniyat va san'at sohasi boshqaruvning tarixiy-ilmiy maktablari

Madaniyat va san'at sohasi boshqaruvining horij va o'zbek ilmiy maktablari hamda ularning namoyandalari, sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk, Amir Temurning boshqaruv sohasidagi qarashlari. Shuningdek ilmiy maktablar shakllanishiga xizmat qiluvchi muassasa va tashkilotlar.

5-mavzu. Boshqaruvning xorijiy modellari

Boshqaruvning xorijiy va milliy tamoyillari, qiyosiy tahlil. Ilmiy boshqaruv (1885-1920), boshqaruvda klassik yoki ma'muriy maktab (1920-1950), insoniy munosabatlar maktabi (1930-1950), boshqaruv fani yoki miqdoriy yondashuv (1950- hozirgi davrgacha).

2-modul. Madaniyat va san'at sohasida menejment tizimi

6-mavzu. Menejmentning tashkiliy tuzilishi

Boshqarish tashkiliy tuzilishining turlari. Ularning afzalliklari va kamchiliklari. Zamonaviy menejment rivojlanishi va muammolari. Menejment faoliyatining samaradorligini oshirishda menejment usullarining ahamiyati.

7-mavzu. Menejment faoliyatini tashkil etish

Menejment tizimida menejer. Bozor sharoitida kadrlar mehnatining mazmuni, xarakteri va xususiyati. Zamonaviy menejning kasb-malaka modeli. Boshqarish psixologiyasi. Yapon va Amerika usullari. Zamonaviy bosqichda menejer etikasi va menejer madaniyati.

8-mavzu. Boshqaruv va menejment

Madaniyat va san'at sohasi faoliyatida menejment va boshqaruv tamoyillari. Menejment: qonunlar-tamoyillar-usullar-uslublari.

9-mavzu. Menejer tushunchasi, shaxsiy va ishga doir sifatleri, vazifalari
Madaniyat va san'at sohasida menejment tizimi. Menejer tushunchasi. Zamonaviy menejer sifatleri.
Menejer faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish. Art-menejer.

10-mavzu. Zamonaviy menejer sifatleri
Menejer vazifalari. Menejerga qo'yiladigan talablar. Menejmentda foydalaniladigan usul (metod)lar.

3-modul. madaniyat va san'at menejmentining tashkiliy tuzilmalari

11-mavzu. Menejer faoliyatini rejalashtirish va tashkillashtirish
Madaniyat va san'at sohasi faoliyatida rejalashtirish asoslari. Tashkilot menejerining jamoaga va tashkilotga bo'lgan munosabati. Innovatsion yangiliklarni joriy etish.

12-mavzu. Madaniyat va san'at menejmenti, unga mental omillar ta'siri
Madaniyat va san'at menejmenti, o'zbek xalqi milliy madaniyati, milliy qadriyatleri. Hozirgi zamonda badiiy madaniyatni boshqarish tizimi. milliy mental omillarining yaratilishi.

13-mavzu. Madaniyat va san'at sohasi menejmentining istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlari
Madaniyat va san'at sohasi menejmenti taraqqiyot bosqichlari. Madaniyatshunoslarning ilmiy izlanishlari. Madaniyat va san'at sohasi menejmentining istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlari.

14-mavzu. Ishga doir etika va etiket
Ishbilarmonlik etiketi. Etiket. Nutq madaniyati. Samarali nutq. Tashkilotchilik qobiliyati. Menejer va yetakchi. Yetakchining vazifasi. Yetakchilikka xos ikki xil yondashuv. Rahbarning vazifasi.

4-modul. madaniyat va san'at sohasida boshqaruv samaradorligi

15 mavzu. Boshqaruv mehnatini ilmiy-ijodiy tashkil etish
Boshqaruv mehnatini ilmiy-ijodiy tashkil qilish jarayoni. Madaniyat va san'at sohasi ilmiy-ijodiy jarayonlari borasidagi boshqaruv vazifalari. Rejalashtirish. Tashkil qilish. Motivatsiya.

16-mavzu. Boshqaruv qarorlari
Madaniyat va san'at sohasi faoliyatida boshqarish qarorlari, reglament, meyorlash, qaror qabul qilish bosqichlari, qaror qabul qilishning tashkiliy-ma'muriy, iqtisodiy, ijtimoiy-ruhiy, tarbiyaviy-huquqiy usullari.

17-mavzu. Boshqaruvda axborot kommunikatsiyalar
Boshqaruvda axborot tizimi tushunchasi va uni boshqarish masalalari. Boshqaruvda texnologiyalarga qo'yiladigan talablar. Qayta ishlash, aralash axborot tizimi. Zamonaviy axborot, kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, yangi elektron adabiyotlar mazmun-mohiyati.

18-mavzu. Boshqaruv jarayonlari va samaradorligi
Madaniyat va san'at sohasida rag'batlantirish, intellektual, axborotli, kommunikativ, ijtimoiy-psixologik va qator omillar. Boshqaruv jarayonlarida rag'batlantirish, jazolash omillari.

5-modul. madaniyat va san'at sohasi islohotlarida kadrlarga qo'yiladigan talablar

19-mavzu. Zamonaviy rahbar qiyofasi
Zamonaviy rahbarlarga qo'yiladigan talablar. Ishonch, mas'uliyat va talabchanlik. Xodimlarning kasbiy va ijtimoiy moslashuvi. Boshqaruv madaniyatining namoyon bo'lishi. Maqsadga va muhitga munosabat.

20-mavzu. Rahbarning o'zini o'zi boshqarishi
Rahbarning bilim darajasi. Tashkilotchilik qobiliyati. Boshqaruv samaradorligini ta'minlay olish. Rahbar fazilatlarini belgilovchi mezonlar. Rahbar ma'naviyati, mahorati, mas'uliyati, ma'rifati va farosati tushunchalari.

21-mavzu. Boshqaruv samaradorligi va mezonlari
Boshqaruv samaradorligini oshirish omillari. Iqtisodiy va ijtimoiy boshqaruv samaradorligi tushunchalari. Boshqaruvning iqtisodiy samaradorlik mezonlari va ko'rsatkichlari.

22-mavzu. Tashkiliy o'zgarishlarni boshqarish
Tashkiliy o'zgarish tushunchasi. Tashkiliy tuzilma. Tashkiliy madaniyat. Tashkilotlararo hamkorlik. Tashkilotda shaxsning o'rni.

23-mavzu. Nizo va stresslarni boshqarish
Boshqaruv faoliyatida nizo tabiati. Nizo haqida tushuncha. Nizolarning turlari. Nizolarning sabab va oqibatleri. Nizo jarayonining modeli. Nizolar vaziyatini boshqarish.

6-modul. o'zbekistonda madaniyat va san'at sohasi faoliyatini tashkillashtirish tizimi
24-mavzu. Madaniyat va san'at muassasalarining ijtimoiy mohiyati, vazifalari va asosiy funksiyalari.

Madaniyat va san'at muassasalarining ijtimoiy mohiyati. Madaniyat muassasalari va ularning vazifalari. San'at muassasalarining vazifalari. Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy funksiyalari. Madaniyat va san'at muassasalari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asosi. O'zbekistonda madaniyat va san'at faoliyatida transformatsion jarayonlari.

25-mavzu. O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasi faoliyatini boshqarish siyosati va tizimi

Madaniyat va san'at sohasiga oid tashkiliy-huquqiy meyoriy hujjatlar. 2016-2019 yillardagi madaniyat va san'at sohasi faoliyatidagi islohotlarning mazmun-mohiyati. Musiqiy ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi muammolari. "Do'stlik klublari" faoliyati.

26-mavzu. Teatrlar faoliyatini tashkil etish va boshqarish

Teatr. Teatr faoliyati. Teatr janrlari va yo'nalishlarining mazmun-mohiyati. O'zbekiston teatrlari faoliyatiga bir nazar. Teatr faoliyatini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari.

27-mavzu. Muzeylar va ko'rgazma zallari faoliyatini tashkil etish va boshqarish

Muзей menejmentining maqsad va vazifalari. Muzeylar Renovatsiya dasturi. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan muzeylar faoliyati. Tashkil etish va boshqarish masalalari.

7-modul. ijodiy jamoalar faoliyatini tashkil etish va boshqarish

28-mavzu. Professional va badiiy havaskorlik jamoalari faoliyatini tashkil etish

Ijodiy tomosha guruhlari faoliyatining rivojlanish bosqichlari. Respublikada ijodiy jamoalarning faoliyatini tashkil etishning qonuniy asoslari.

29-mavzu. Konsert tashkilotlari va badiiy jamoalar faoliyatini boshqarish

Musiqiy faoliyatda menejment. Konsert tashkilotlari boshqaruvi. Konsert faoliyati. O'zbekiston badiiy jamoalari ijodiy birlashmasi qoshidagi badiiy jamoalar faoliyati.

30-mavzu. Havaskorlik badiiy jamoalari va to'garaklari faoliyatini boshqarish

Havaskorlik badiiy jamoalari boshqaruvi. To'garaklar faoliyatida boshqaruv.

31-mavzu. Kitob mutolaasi va kitobxonlikni targ'ib qilishning konseptual asoslari

Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish.

32-mavzu. Nodavlat va jamoat tashkilotlari faoliyati va ijodiy jamoalarni boshqarish

O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan davlat va nodavlat jamoalari faoliyati. Davlat tashkilotlari bilan hamkorlik. Nodavlat va jamoat tashkilotlarida tashkil etish va boshqarish.

8-modul. milliy madaniyatni rivojlantirish–milliy qadriyatlarining taraqqiyot bosqichiga yangicha yondashuv

33-mavzu. Madaniyat va san'at sohasi taraqqiyotida transformatsion jarayonlar

Soha rivoji yo'lidagi innovatsion g'oyalar. Madaniyat va san'at sohasi taraqqiyotida xorijlik va milliy ekspertlar nigohi. O'zbek maqom, baxshichilik, milliy hunarmandchilik maktablarining o'ziga xos xususiyatlari.

34-mavzu. Milliy madaniyatni rivojlantirish – milliy qadriyatlar yashovchanligini ta'minlashning asosidir.

2018 yil 28 noyabrda imzolangan "O'zbekiston Respublikasida Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident Qarori- madaniyat va san'at sohasidagi yangi marralar uchun boshlangan tarixiy poydevor sifatida.

35-mavzu. Madaniyat va san'at muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish

Madaniyat va san'at muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish borasida yangicha tamoyillar. "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosidagi tadbirlar tizimini tashkil qilishda sohaning keksa avlod vakillari ibrati.

36-mavzu. Madaniyat markazlarining yangicha ish uslublari

"O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi" da madaniyat markazlari boshqaruviga qo'yilgan talablar.

V. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy va seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasi faoliyatining rivojlanishi.
2. 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi–ijtimoiy rivojlanishning dasturilamali.
3. Madaniyat va san'at sohasi boshqaruvning tarixiy-ilmiy maktablari.
4. Boshqaruvning xorijiy modellari.
5. Boshqaruv va menejment.
6. Boshqaruvda axborot va kommunikatsiyalar.
7. Boshqaruv qarorlari.
8. Boshqaruv jarayonlari va samaradorligi.
9. Madaniyat va san'at sohasida menejment tizimi.
10. Menejer tushunchasi.
11. Shaxsiy va ishga doir sifatlari va vazifalari.
12. Zamonaviy menejer sifatlari.
13. Menejer faoliyatini rejalashtirish va tashkil qilish.
14. Ishga doir etika va etiket.
15. Menejer va yetakchi.
16. Boshqaruv mehnatini ilmiy-ijodiy tashkil etish.
17. Rahbarning o'zini-o'zi boshqarishi.
18. San'at sohasi menejmenti va uning nazariy asoslari.
19. Madaniyat va san'at menejmenti va unga mental omillar ta'siri.
20. Madaniyat va san'at menejmentining istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlari.
21. O'zbekistonda madaniyat va san'at muassasalarini boshqarish siyosati va tizimi.
22. Madaniyat va san'at sohasiga oid tashkiliy-huquqiy, meyoriy hujjatlar.
23. Teatrlar faoliyatini tashkil etish va boshqarish.
24. Muzeylar va ko'rgazma zallari faoliyatini tashkil etish va boshqarish.
25. Konsert tashkilotlari va badiiy jamoalar faoliyatini boshqarish.
26. Havaskorlik badiiy jamoalari va to'garaklari faoliyatini boshqarish.
27. Tasviriy san'atda marketing.
28. Madaniyat va san'at taraqqiyotida transformatsion jarayonlar.
29. Nodavlat va jamoat tashkilotlari faoliyati va ijodiy jamoalarni boshqarish.
30. O'zbekistonda madaniyat va san'at boshqaruvi.
31. Madaniyat va san'at sohasi boshqaruvining tashkiliy-huquqiy asoslari.
32. O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasi rivojlanishining transformatsion jarayonlari.
33. 2016-2019 yillardagi madaniyat va san'at sohasi faoliyatidagi islohotlarning mazmun-mohiyati.
34. Musiqiy ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi muammolari.
35. "Do'stlik klublari" faoliyati.
36. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish.
37. Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish.
38. Soha rivoji yo'lidagi innovatsion g'oyalar.
39. Madaniyat va san'at sohasi taraqqiyotida xorijlik va milliy ekspertlar nigohi.
40. O'zbek maqom, baxshichilik, milliy hunarmandchilik maktablarining o'ziga xos xususiyatlari.
41. Madaniyat va san'at muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish.
42. Madaniyat va san'at muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish borasida yangicha tamoyillar.
43. "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosidagi tadbirlar tizimini tashkil qilishda sohaning keksa avlod vakillari ibрати.
44. Madaniyat markazlarining yangicha ish uslublari.
45. Havaskorlik san'ati va nomoddiy madaniy merosni keng targ'ib qilish vositalari va usullari.
46. Madaniyat va san'at sohasida innovatsion g'oyalar.
47. Ijodiy imtihonlar – iste'dodlarni tanlab olishning kreativ tamoyili.
48. "Sharq taronalari" Xalqaro festivalining o'zbek va jahon san'ati taraqqiyotidagi o'rni.
49. Maqom san'ati- milliy qadriyatlarining timsoli sifatida.
50. O'zbekistonda yaratilgan baxshichilik maktabi asoslari.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

VI. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Madaniyat va san'at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarishning asosiy mezonlari.
2. Madaniyat va san'at sohasi faoliyatida xorijiy, milliy modellar.
3. Boshqaruvning xorijiy va milliy tamoyillari, qiyosiy tahlil.
4. Ilmiy boshqaruv (1885-1920), boshqaruvda klassik yoki ma'muriy maktab (1920-1950), insoniy munosabatlar maktabi (1930-1950), boshqaruv fani yoki miqdoriy yondashuv (1950- hozirgi davrgacha).
5. Soha rivoji yo'lidagi innovatsion g'oyalar.
6. Madaniyat va san'at sohasi taraqqiyotida xorijlik va milliy ekspertlar nigohi.
7. Madaniyat va san'at sohasida menejment tizimi
8. Menejmentning tashkiliy tuzilishi.
9. Boshqarish tashkiliy tuzilishining turlari.
10. Zamonaviy menejment rivojlanishi va muammolari.
11. Menejment tizimida menejer.
12. Boshqaruv va menejment.
13. Madaniyat va san'at sohasi faoliyatida menejment va boshqaruv tamoyillari.
14. Madaniyat va san'at sohasida menejment tizimi.
15. Zamonaviy menejer sifatlari
16. Menejer faoliyatini rejalashtirish va tashkillashtirish.
17. Madaniyat va san'at menejmenti, unga mental omillar ta'siri.
18. Madaniyat va san'at sohasi menejmentining istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlari.
19. Boshqaruv qarorlari
20. Madaniyat va san'at sohasida menejment tizimi tushunchalari
21. Boshqaruvda axborot kommunikatsiyalar
22. Boshqaruv jarayonlari va samaradorligi.
23. Rahbarning o'zini o'zi boshqarishi.
24. Zamonaviy rahbar qiyofasi.
25. Boshqaruv samaradorligi va mezonlari.
28. Nizo va stresslarni boshqarish.
29. O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasi faoliyatini boshqarish siyosati.
30. Teatrlar faoliyatini o'rganish.
31. Muzeylar va ko'rgazma zallari faoliyatini boshqarish.
33. Konsert tashkilotlari va badiiy jamoalar faoliyatini boshqarish.
34. Havaskorlik badiiy jamoalari va to'garaklar faoliyatini boshqarish tizimi.
35. Nodavlat va jamoat tashkilotlari faoliyati va ijodiy jamoalarni boshqarish.
36. Milliy madaniyatni rivojlantirish-milliy qadriyatlarning taraqqiyot bosqichiga yangicha yondashuv.
37. Ijodiy jamoalar faoliyatidagi zamonaviy tendensiyalar.
38. Ijodiy ishlab chiqarish salohiyatining raqobatbardoshligini baholash usullari;
39. O'zbekistonda madaniyat va san'at muassasalarini boshqarishning milliy xarakteri.
40. Madaniyat markazlarining zamonaviy boshqaruv tizimi.
41. Madaniyat sohasida ijodiy jamoalar faoliyatini muvofiqlashtirish.
42. Ta'lim muassasalarida madaniy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va tashkil etish.
43. Madaniyat muassasalarida badiiy-ijodiy jamoalar turlari va ularning tavsifi.
44. Madaniyat va san'at sohasi yangi tashkiliy tuzilmalarning turlari.
45. Madaniy hordiq tadbirlarining ilmiy amaliyot tahlili.
46. Bo'sh vaqt, dam olish va madaniy hordiq tadbirlari;

47. Madaniyat muassasasini rivojlantirishning strategik rejasini ishlab chiqish.
48. Kadrlarni innovatsion boshqarish konsepsiyasi.
49. Kadrlarni innovatsion boshqarishning zamonaviy yo'nalishlari.
50. Kadrlarni boshqarish va inson resurslarini boshqarish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.
51. Kadrlarni boshqarishda innovatsion faoliyatni tashkil etish tamoyillari.
53. Innovatsion maqsadlarining umumiy tasnifi: rejalashtirish, faoliyatni tashkil etish.
54. Personalni boshqarishda innovatsion boshqaruvning strategik bosqichlari.
55. Ijodiy jarayonda innovatsion strategiya tanlovi.

Seminar mashg'ulotlari multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalari qullanishi maqsadga muvofiq.

Seminar darslari davomida talabalar kichik guruhlarda ishlagan holda taqdimotlar qiladilar. Har seminar darsida bir guruh o'z taqdimotini namoyish etadi. Taqdimotlarda slaydlar, filmlar, posterlar, rasmlar, va artefaktlardan foydalanish talab etiladi.

VII. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ish mavzulari fan o'qituvchisi va talabalar tomonidan ishlab chiqiladi. Mavzular talabani mustaqil bilim olishga ongli ravishda yo'naltirishi lozim. Kafedra mutaxassislari tomonidan har bir mavzu bo'yicha talabani mustaqil o'qib o'rganishiga doir vazifa va topshiriqlar ishlab chiqiladi va ularni bajarish uchun aniq ko'rsatmalar misollar yordamida beriladi. Fanni o'rganish jarayonida talaba interfaol usullar vositasida mustaqil ta'lim olishga rag'batlantiriladi va mustaqil fikrlash talab qilinadi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzu va faoliyat turlari:

1. Madaniyat va san'at sohasi faoliyatining tarixiy-ilmiy maktablari
2. Madaniyat va san'at sohasi evolyusiyasi
3. O'zbekistonda madaniy siyosat
4. Boshqaruvning xorijiy modellari
5. Boshqaruv maktabi asoschilari
6. Menejment tushunchasi
7. Menejment usullari
8. Menejmentning huquqiy usullari
9. Menejment faoliyatining samaradorligi
10. Menejment madaniyati
11. Menejmentning ish uslubi
12. Madaniyat va san'at sohasida menejment
13. Zamonaviy menejer sifatlari
14. Menejer va yetakchi
15. Ishga doir etika va etiket
16. Nutq madaniyati va samarali nutq
17. Boshqaruv mehnatini ilmiy-ijodiy tashkil qilish
18. Rejalashtirish, tashkil qilish va motivatsiya
19. Rahbarning o'zini o'zi boshqarishi
20. Rahbarning bilim darajasi
21. Rahbar ma'naviyati, mahorati
22. Rahbarning fazilatlari va nuqsonlari
23. Madaniyat va san'at menejmentiga mental ta'sirlar
24. O'zbek xalqi milliy madaniyati va milliy qadriyatlar
25. Madaniyat va san'at menejmentining istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlari
26. O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasining transformatsion jarayonlari
27. Madaniyat va san'at sohasiga oid tashkiliy-huquqiy meyoriy hujjatlar
28. Soha rivoji yo'lidagi innovatsion g'oyalar
29. Madaniyat va san'at sohasi taraqqiyoti xorijiy ekspertlar nigohida
30. Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi vazifalari

31. Teatrlar faoliyatini tashkil etish va boshqarish
32. Muzeylar va ko'rgazma zallari faoliyatini tashkil etish va boshqarish
33. Konsert faoliyati tushunchasi
34. Havaskorlik badiiy jamoalari
35. Nodavlat va jamoat tashkilotlari faoliyatini tashkil etish va boshqarish
36. Tasviriy san'at marketingi
37. Mutolaa madaniyati-madaniyat va san'at sohasining ajralmas qismidir
38. Kitobxonlikni targ'ib qilish metodlari va ularni amalga oshirish
39. Maqom san'atiga e'tibor-milliy qadriyatlarimizga e'tibor demakdir
40. Xalq og'zaki ijodining targ'iboti yo'lida
41. Qadimiy an'analarimiz milliy hunarmandchilik misolida
42. Madaniyat va san'at sohasi faoliyatida istiqbol rejalari
43. Milliy madaniyatni rivojlantirish borasidagi islohotlar
44. "Madaniyat va san'at" terminlarining mohiyati
45. "Obod mahalla" va "Obod qishloq" dasturlarini amalga oshirishda madaniyat va san'at sohasi xodimlarining roli.

San'at va jamiyatning badiiy madaniyati Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha portfolio tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. Talabadan fan bo'yicha mustaqil o'rgangan bilimlarini auditoriyada turli xil interaktiv uslublar orqali namoyish qila olishi va boshqalarga o'rgata olishi talab etiladi.

VIII. Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy. "Fozil odamlar shahri", Toshkent, G'afur G'ulom. Adabiyot va san'at nashriyoti", 1993.
2. Avloniy A. "Turkiy guliston yoxud axloq" – Toshkent, 1993.
3. Bekmurodov B, Quronboyev Q, Tangriyev L. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. Toshkent. G'afur G'ulom. 2017.
4. Strategic Innovation Management University of Exeter, John Bessant, 978-92-85513-9-5 2014.
5. Innovation Management, Institute for Innovation and Technology, prof. Borut Likar ISBN 978-91-90592-9-6, Sloveniya, 2013 180 p.
6. Kaykovus. Qobusnoma. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2018.
7. To'ychiyeva .S., Norbekov.A. Ijtimoiy siyosiy faoliyat. Toshkent. Fan va texnologiyalar. (lotinda yoziladi). 2010.
8. To'ychiyeva.S. Shaxs ijtimoiy faolligi va ma'naviy madaniyat. Toshkent. Milliy ensiklopediya ilmiy nashriyoti. 2016.
9. Umarov A. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot. Fan. 2004.
10. Fayziyev T., Sobirjonova D., Sulaymonov B. Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish (ma'ruzalar matni). T.: 2002.
11. Xaydarov A. Madaniyat va san'at sohasini boshqarish asoslari. – Toshkent. G'.G'ulom . 2016.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Ma'naviy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir. // Toshkent. "O'zbekiston", 1998.
2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini barpo etamiz. Toshkent. "O'zbekiston". 2016.
3. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 .
4. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 .
5. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. "O'zbekiston", 2017.

6. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent, "Ma'naviyat". 2008.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 2017 yil 14 fevraldagi F-4849 Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 yil 16 fevral Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2018 yil 5 apreldagi Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi" 2017 yil 31 may Qarori.
11. "O'zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 8 avgust Qarori.
12. "O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 2017 yil 15 avgust Qarori.
13. "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi Prezident qarori // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 yil 17 oktabr.
